

“O‘zbekiston temir yo‘llari”AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi II-yarim yillik HISOBOT*

2026-yil 30-iyun holatiga

I. Umumiy ma'lumot

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2026-yil davomida aloqa kanallari orqali jami **22 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, markazit apparat va tashkilotlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega.

Markaziy apparat –**13 ta**

Tarkibiy tashkilotlar:

“Temiryo‘linfratuzilma”AJ – **4 ta**

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi”AJ – **4 ta**

Harbiylashtirilgan qo‘riqlash boshqarmasi - **1ta**

II. Ko‘rib chiqish natijalari

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2026-yil davomida kelib tushgan murojaatlar o‘rganilib, **3 ta** murojjat yuzasidan mualliflarga javob xati yuborildi, **13 ta** murojaat bo‘yicha xizmat tekshuruvi o‘tkazilib, tegishli xulosalar taqdim etildi. **4 ta** murojjat bo‘yicha o‘rganish o‘tkazilib mualliflarga javob xati yuborildi, **1 ta** murojaat ko‘rilmasdan qoldirildi, **1 ta** murojaat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yo‘naltirildi.

O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari yakunlariga ko‘ra, 2 nafar xodimga nisbatan tegishli ta’sir choralari qo‘llanildi. shundan **2 ta** xodimga ta’sir choralari qo‘llanildi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsiya xavf-xatarlarini minimallashtirish bo‘yicha tegishli bo‘linmalar tomonidan ko‘rilgan choralar:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishchi-xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida jamiyat va uning tizim tashkilotlarida ma’ruza va davra suhbatlari tashkil etish;

2. Kadrlar va iqtisodiy siyosat, xaridlar bilan bog‘liq funksiyalarni raqamlashtirish orqali markazlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

3. Jamiyatning aloqa kanallari hamda davlat nazorat organlaridan kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganib, mualliflarga tegishli xulosa va javoblar taqdim etish;

4. Mijozlar bilan ishlashda, infratuzilma hamda harakat xavfsizligi bilan bog‘liq xodimlar faoliyatini boshqarish maqsadida dasturiy texnologiyalar, yangi modullar ishlab chiqish;

5. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini tahlil qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xodimlarni ogohlantirish;

6. Jamiyat mol-mulkini saqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida nazorat dastaklarini yaratish va tashqi tizimlar bilan integratsiyasini ta’minlash;

7. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.